

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”  
Qo‘qon davlat universiteti  
rektori D.Sh.Xodjaeva  
2026-yil 6-mart**

**60110700 –FIZIKA VA ASTRONOMIYA TA‘LIM YO‘NALISHI  
BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN “MAXSUS (MAJBURIY)  
FANLARDAN”  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA SINOV LARI DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	60110700 – Fizika va astronomiya

**QO‘QON-2026**

Ushbu dasturda 60110700 – Fizika va astronomiya ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Umumiy fizika”, “Astronomiya kursi”, “Umumiy pedagogika”, “Umumiy psixologiya” fanlari bo’yicha yakuniy davlat attestatsiyasini o’tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o’quv adabiyotlar hamda elektron ta’lim resurslari ro’yxati keltirilgan.

<b>Tuzuvchilar:</b>	M. Qo’chqorov	Qo’qon davlat universiteti Fizika va astronomiya kafedrası mudiri, dotsent, f-m.f.f.d.(PhD),
	I.Eshboltayev	Qo’qon davlat universiteti Fizika va astronomiya kafedrası professori, f-m.f.f.d. (PhD)
	N.Bozorov	Qo’qon davlat universiteti Fizika va astronomiya kafedrası professori, f-m.f.n.
	Z.A.Xolmatova	Qo’qon davlat universiteti Pedagogika kafedrası mudiri, (DSc), professor
	D.A.Solieva	Qo’qon davlat universiteti Psixologiya kafedrası mudiri, professor, ps.f.n.

**Taqrizchilar:**

	I.Kokanbayev	Qo’qon davlat universiteti Fizika va astronomiya kafedrası professori, f-m.f.n.
	R.Rasulov	Farg’ona davlat universiteti “Fizika” kafedrası professori, f-m.f.d.
	K.Nasriddinov	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Fizika kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori
	N.Erkaboyeva	Qo’qon davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, professor, p.f.d.

Qo’qon davlat universiteti Kengashining 2026-yil 6-mart 7-sonli - qarori bilan tasdiqlangan.

## Umumiy fizika fanining mazmuni

Umumiy fizika fanini o'qitishdan maqsad - bo'lajak fizika o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini amalga oshirish. Umumiy fizika fanini o'qilish samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan tushuntirish sanaladi.

Umumiy fizika fanini o'qitishdan maqsad talabalarda. bo'lajak fizika o'qiluvchisiga zarur bo'lgan darajada makro va mikroduyoda sodir bo'ladigan harakat va uning turlari haqida fenomenologik bilim, ko'nikma va malakani shakillantirishdir.

Fanning vazifasi talabalarga umumiy fizikaga doir amaliy masb'ulotlarida o'zlashtirilgan barcha mavzular bo'yicha masalalar yechish, laboratoriya ishlarni tashkil qilish. O'tkazish hisob kitob ishlarini bajarish, ularga doir xulosalar chiqara olish, fizik qonuniyatlarni munosabatlar to'g'ri aniqlash kabilarni o'rgatishdan iborat.

### Umumiy fizika fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari.

1. Moddiy nuqtaning fazodagi harakatini tavsiflashning qanday usullari bor?
2. Moddiy nuqtaning o'rtacha tezlanishi qanday kattalik?
3. Tezlanish vektorining normal tashkil etuvchisi (normal tezlanish) nimani xarakterlaydi?
4. Qachon jismning tezlik va tezlanish vektorlari qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi?
5. Tezlanish vektorining tangensial tashkil etuvchisi (tangensial tezlanish) nimani xarakterlaydi?
6. Qanday harakatda tezlik va tezlanish o'zaro perpendekulyar yo'nalgan bo'ladi?
7. Jismning tezligi 3 marta oshsa, kinetik energiyasi qanday o'zagaradi?
8. Yer sirtida jismni qanday kuch ushlab turadi?
9. Yung moduli birligini ko'rsating
10. Noinersial sanoq sistemalari qanday sistemalar?
11. Qanday shart bajarilsa relyativistik mexanika qonunlari qo'llaniladi?
12. Qanday jism girooskop deb ataladi?
13. Shisha idishlarning biri suv bilan ikkinchisi simob bilan to'ldirildi. Birinchi idish suvga, ikkinchi idish simobga tushirilsa, qaysi biri cho'kadi?
14. Quyidagi jumlaning mazmuniga mos holda to'ldiring. Tebranishlarning muhitda tarqalish jarayoni ... deb ataladi.
15. Jismlarning fazodagi vaziyatini aniqlash uchun nimaga ega bo'lishimiz kerak?
16. Sanoq sistemasiga nimalar kiradi?
17. Moddiy nuqtaning x, y va z Koordinatalarning vaqt bo'yicha o'zgarish ifodasini aniqlang.
18. Klassik mexanikaga tegishli bo'lgan saqlanish qonuniga tegishli simetriyalar mavjud. Energiyaning saqlanish qonuniga simmetriyasini toping.

19. Poezd tezligi 90 km/soat bo'lsa, radiusi 0,6 m bo'lgan lokomotiv g'ildiragining aylanish chastotasini toping.
20. Kuchni o'lchovchi asbob- prujinali dinamometrning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
21. Fazo va vaqtning simmetriyasi deganda nima tushuniladi?
22. Jumlani mazmuniga mos holda to'ldiring. Impul'sning saqlanish qonuni ... natijasidir.
23.  $3\vartheta$  va  $\vartheta$  tezlik bilan bir-birini quvib ketayotgan ikkita bir xil shar mutlaq noelastik to'qnashdi. To'qnashishdan keyingi tezlikni toping.
24. Jumlani mazmuniga mos holda to'ldiring. Tizimning inersiya markazi tashqi kuchlar ta'sirida ... kabi harakatlanadi.
25. Javoblarning qaysi birida Keplerning 1-qonuni to'g'ri yozilgan?
26. Javoblarning qaysi birida Keplerning 2-qonuni to'g'ri yozilgan?
27. Fizik maydon nima?
28. Yerning radiusi 6,37 Mm, erkin tushish tezlanishi esa  $9,8 \text{ m/s}^2$  ekanligi ma'lum bo'lsa, Yerning o'rtacha zichligini toping
29. Raketa Yerdan uzoqlashib uning ta'sir doirasidan chiqib ketadigan tezlikning eng kichik qiymatini ko'rsating.
30. To'lqinning interferensiya hodisasi nima?
31. Izobarik jarayon uchun termodinamikaning 1-qonuni ifodasini ko'rsating.
32. 73 K ni Selsiy shkalasiga o'tkazing
33. Normal sharoitda 1 mol gazning hajmini aniqlang(l).
34.  $P/kT$  ifoda orqali nimani aniqlash mumkin? P-bosim, k-Bol'sman doimiysi, T-harorat.
35. Boyl –Mariott qonuni qanday jarayonni ifodalaydi?
36. Izobarik jarayonda gazga berilgan issiklik miqdorining qancha qismi ish bajarishga sarf bo'ladi?
37. FIK 40% bo'lgan issiklik dvigatelida 6kJ energiya sovutgichga berildi. Isitgichdan olingan energiyasi aniqlang(kJ).
38. Karno siklida qanday jarayonlar sodir bo'ladi?
39. Diametri 1mm bo'lgan kapillyar naychada suv qancha balandlikgacha ko'tarilishi mumkin? Suv uchun  $\sigma=73\text{mN/m}$ .
40. Quyidagi xossalardan qaysi biri barcha kristiall jismlar uchun o'rinli?
41. Universal gaz doimiysining fizik ma'nosi qanday?
42. Izoxorik jarayon uchun termodinamikaning 1–qonuni qanday bo'ladi?
43. 18g suvdagi molekulalar sonini aniqlang.  $N_A=6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$
44. Bir trubadan ikkinchisiga o'tganda suvning oqim tezligi 4 marta ortsa, trubaning ko'ndalang kesim yuzi qanday o'zgargan?
45. Massasi 2g bo'lgan qanday gazda modda miqdori 1 mol bo'ladi?
46. 270C ni Kelvin shkalasiga o'tkazing.
47. Hajmi 22,4 l vodorodning normal sharoitdagi massasi qancha(g)?

48. Harorati 100 K bo'lgan kislorod molekularining o'rtacha kvadratik tezligini aniqlang (m/s).
49. Ideal gazni suyultirish mumkinmi?
50. Charl qonuni qanday jarayon uchun o'rinli?
51. 2 ta izoterma, 2 ta adiabatadan iborat sikl kimga tegishli?
52. Trubaning ko'ndalang kesimi 2 marta kamaysa, oqim tezligi qanday o'zgaradi?
53. Ochiq idishdagi suv 95°C da qaynadi. Bunga sabab nima?
54. Isitgichdan olingan va sovutgichga berilgan issiqlik miqdorlari ikki martadan ortsa, issiqlik dvigatelining FIK qanday o'zgaradi?
55. Jismning solishtirma issiqlik sig'imi nima?
56. Molekulalarning erkinlik darajasi nima?
57. Gaz bosimi qachon yuzaga keladi?
58. Puasson tenglamasi to'g'ri yozilgan javobni ko'rsating.
59. Agar ikki yoki undan ortiq gaz bir xil sharoitda turgan bo'lsa, bu gazlarning konsentratsiyalari bir xil bo'ladi. Ushbu fikr nimani ifodalaydi?
60. Istalgan gaz aralashmasining to'liq bosimi shu aralashma tarkibiga kirgan gazlarning partial bosimlari yig'indisiga teng bo'ladi. Ushbu fikr nimani ifodalaydi?
61. Yer sirtidan yuqoriga ko'tarilgan sari atmosfera bosimi .....
62. Moddaning ichki energiyasi uning ..... bog'liq
63. 1 mol modda miqdoriga ega bo'lgan ideal gaz tempera turasini izobarik protsessda bir birlikka o'zgarishida bajarilgan ishga son jihatdan teng bo'lgan kattalikka ..... deyiladi
64. Turlicha isigan gaz yoki suyuqlik qatlamlarining o'z og'irligi tufayli bir-biri bilan energiya almashinish protsessiga ..... deyiladi.
65. Nurlanish yo'li bilan bir moddadan ikkinchi bir moddaga energiya uzatish protsessiga ..... deyiladi.
66. Issiqlik almashinish vaqtida berilgan energiyaga ..... deb ataladi.
67. Politropik protsess tenglamasi berilgan javobni ko'rsating.
68. Moddaning temperatura gradiyenti birga teng bo'lganida u orqali o'tadigan issiqlik oqimiga son jihatdan teng bo'lgan kattalikka ..... deyiladi.
69. Bir xil sharoitdagi teng massali kislorod va vodorod hajmlarini ( $V_1$  va  $V_2$ ) taqqoslang.
70. Maksvell taqsimot funksiyasi ideal gaz molekularining qaysi parametrlari uchun topilgan?
71. Ideal gaz molekularining uch xil tezliklari turini ayting
72. Massasi 4g bo'lgan gaz o'zgarmas bosimda 20 K ga isitilgan. Gaz bajargan ishni toping.
73. Effektiv diametr deganda nimani tushuniladi?
74. Diffuziya deb qanday xodisaga aytiladi?

75. Berk sistemada yig'ilgan zaryad miqdorini qaysi asbob yordamida aniqlanadi?
76. Qutbsiz molekula uchun to'g'ri ko'rsatilgan ifodani toing.
77. Berilgan yuzani kesib o'tuvchi elektr induksiya kuch chiziqlarining soni – bu ....
78. Elektr induksiya vektorining oqimini hisoblash formulasini toping.
79. Qachon zaryadlarning hajmiy zichligi kattaligi qo'llaniladi?
80. Zaryadlar chiziqli zichligining birligi nima?
81. 1901-yilda Rikke metallarda to'k tashuvchilarning tabiatini aniqlash uchun qaysi metallardan foydalangan?
82. Metallarda zaryadni qaysi zarralar tashiydi?
83. Tolmen va Styuart o'z tajribalarida nimani aniqlaganlar?
84. Metallarda temperaturaning past bo'lishi natijasida o'tkazgich qarshiligining no'lga teng bo'lib qolish hodisasi qanday nomlanadi?
85. O'ta o'tkazuvchanlik hodisasini birinchi bo'lib kim kashf etgan?
86. Nima uchun o'ta o'tkazuvchan moddalarda hosil qilingan to'k manbasiz uzod vaqt hosil bo'lib turadi?
87. Eng yaxshi izolyator bu?
88. Birlik musbat zaryadni cheksizlikdan maydonning biror nuqtasiga keltirishda bajarilgan ishga miqdor jihatidan teng bo'lgan kattalik nima?
89. Ekvipotensial sirtlar – bu ...
90. Ampermetrni o'lchash chegarasini oshirish uchun unga  $R_{sh}$  qarshilikni qanday ulash lozim?
91. Voltmetrni o'lchash chegarasini oshirish uchun unga  $R_q$  qarshilik qanday ulanadi?
92. O'z induksiya xodisasi natijasida xosil bo'luvchi to'klar nima deb ataladi?
93. Induksion to'kning yo'nalishini qaysi olim tajribada aniqlagan?
94. Elektromagnit induksiya qonuni qaysi olim tomonidan kashf qilingan?
95. Kyuri temperaturasi bu...
96. Magnit maydonga kiritilgan to'kli o'tkazgichga qanday kuch ta'sir qiladi?
97. Bir biriga parallel, bir yo'nalishdagi to'klarning o'zaro ta'siri qanday bo'ladi?
98. Bir biriga pparalle, qarama qarshi yo'nalishdagi to'klarning o'zaro ta'siri qanday bo'ladi?
99. Magnit maydonida harakatlanuvchi elektr zaryadiga qanday kuch ta'sir qiladi?
100. O'zgaruvchan tok zanjirida faqat aktiv qarshilik ulanganda, rezistor qarshiligi tok chastotasiga qanday bog'langan?
101. O'zgaruvchan to'k zanjirida faqat induktiv g'altak bo'lgan xolda, issiqlik ajraladimi?
102. Yorug'lik oqimi
103. Linzaning bosh optik o'qi qanday aniqlanadi?

104. Dispersiya xodisasi qanday qonuniyatlarga asoslangan?
105. Inson ko'zi qanday nurlarni sezadi?
106. Yorug'lik kuchi deb nimaga aytiladi?
107. Yoritilganlik nima?
108. Yorituvchanlik nima?
109. Ravshanlik nima?
110. Fotometrlar nima?
111. Yorug'likka sezgir asboblarni ko'rsating
112. Elektromagnit to'lqinlar deb nimaga aytiladi?
113. Grappa tezligi deb nimaga aytiladi?
114. Zarracha muhitda qanday tezlik bilan tarqaladi?
115. Vavilov-Cherenkov nurlanishining mohiyati nimada?
116. Nisbiy sindirish ko'rsatkichi deb nimaga aytiladi?
117. Qutblangan yorug'lik intensivligi qaysi qonundan aniqlanadi?
118. Mikroskopning tuzilishi
119. Difraksion panjara tuzilishi
120. Difraksion panjara qanday parametrlarga ega?
121. Frenel va Froungofer difraktsiyalar farqi nimada?
122.  $d = a + b$  ifodaning nomi va undagi kattaliklar
123. Yassi parallel shishadan nur o'tadimi?
124. Qaytish qonuni
125. To'la ichki qaytish
126. Kristallarda optik o'qlar
127. Xromatik aberratsiya
128. Qutblantiruvchi qurilmalarning ishlash jarayoni.
129. Optikada yurug'lik tarqalishini tushuntirishda qanday tushunchalardan foydalaniladi?
130. Izotrop muhit
131. Refraktometr qanday fizik kattalikni aniqlaydi
132. Island shpati kristali qanday xususiyatga ega?
133. Keltirilgan hodisalarning qaysi biri yorug'likning to'lqin xossalari asosida tushuntiriladi?
134. Malyus qonuni
135. Qanday to'lqinlar kogerent yoki nokogerent bo'ladi?
136. Difraksiya hodisasida Gyuygens – Frenel tamoyili
137. Yorug'lik tirqishlardan o'tganda qanday hodisa ro'y beradi?
138. Bitta tirqish nechta maksimum hosil qiladi?
139. Difraksiya xodisasining maksimum sharti nimalarga bog'liq?
140. Reley qonuni mohiyati
141. Yorug'lik to'lqin tabiati.
142. Molekular sochilish nima.

143. Yorug`lik intensivligi qanday kattalik?
144. Yorug`likning qutblanish turlari
145. Qaytgan va singan yorug`likning qutblanishi
146. Monoxramatik yorug`lik to`lqini deb nimaga aytiladi?
147. Yupqa plastinkada interferensiya xodisasida to`lqin turi
148. Optik bir jinsli muhit
149. Optik anizotropiyaning vazifasi
150. Kogerent va kogerent bo`lmagan to`lqinlar farqi
151. Yorug`lik difraksiyasi
152. Vodorod atomi bosh kvant soni 2 marta oshsa energiya absolyut kiymati necha marta kamayadi?
153. Vodorodsimon ionlarda bosh kvant son 3 marta oshsa elektron orbitalar radiusi nechaga teng
154. Qaysi hollarda foton chiqariladi?
155. Qaysi hollarda foton yutiladi?
156. Absolyut qora jism energetik yorituvchanligi 16 marta oshirish uchun termodinamik haroratini necha marta oshirish kerak?
157. Absolyut qora jismning temperaturasi 2 marta kamaysa energetik yorituvchanligi necha marta kamayadi?
158. Atom yadrosi nimadan tuzilgan?
159. Nuklonlarni yadroda qanday kuchlar ushlab turadi?
160. Yadro zaryadi nimalar soniga bog`liq?
161. Yadro zaryadi Mendeleev jadvalining qaysi qismi bilan belgilanadi?
162. Jism sirtiga tik tushayotgan yorug`likning bitta fotoni yutilganda jism oladigan impuls nimaga teng bo`ladi?
163. Kumush uchun fotoeffektning uzun to`lqin (qizil) chegarasi 0,29 mkm ga teng. Chiqish ishini aniqlang (eV).
164. Adron so`zining ma`nosi?
165. Mezon so`zining ma`nosi?
166. Lepton so`zining ma`nosi?
167. Eng yengil lepton qaysi zarra?
168. Neytrino qaysi zarralar oilasiga kiradi?
169. Neytrino fermionmi yoki bozon?
170. Neytrino turlari nechta?
171. Proton qanday oilaga mansub?
172. Neytrinolar qanday o`zaro ta`sirda qatnashadilar?
173. Barionlarga misol keltiring?
174. Birinchi avlod leptonlar?
175. Foton energiyasi 4 marta oshsa, uning chastotasi kancha uzgaradi
176. Fotonning relyativistik massasi formulasini ko`rsating
177. Tashqi fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasini toping
178. Atom yadrosi nimadan tuzilgan?

179. Nuklonlarni yadroda qanday kuchlar ushlab turadi?
180. Rentgen trubkasining rentgen spektridagi eng “qattiq” nurlarining chastotasi  $10^{19}$  Gs bo’lsa, bu trubka qanday kuchlanish ostida ishlayotgan bo’ladi?
181. Yadro zaryadi Mendeleev jadvalining qaysi qismi bilan belgilanadi?
182. Fotoeffektning qizil chegarasini aniqlovchi formulani ko’rsating.
183. Fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasi shu xodisa uchun qaysi qonunning qo’llanishidir?
184. Rezerford qanday zarrachalarning yupqa moddalarda sochilishi orqali atomning yadro modelini tajriba yordamida kashf etdi?
185. Qandaydir atom E2 energiyali holatdan E1 energiyali holatga o’tganda, nurlangan fotonning energiyasi nimaga teng bo’ladi?
186. Qo’zg’almas elektr zaryad atrofidagi elektr kuchlar ta’siri seziladigan fazo soxasi qanday nomlanadi?
187. Nuqtaviy zaryadlar orasida o’zaro tasir kuchi mavjud ekanligini aniqlagan olim kim?
188. Xar bir atomdagi elektronlar soni rotonlar soniga teng bo’ladi. Bu atom qanday nomlanadi?
189. Elektr maydonning ixtiyoriy bir nuqtasida musbat zaryad birligiga to’g’ri kelgan kuch miqdori nima deb nomlanadi?
190. To’g’ri ifodani ko’rsating?
191. Elektr maydon kuchlanganligining birligi?
192. Qutbsiz dielektriklar berilgan javobni toping.
193. Qaysi qutblanish turi temperaturaga bog’liq bo’lmaydi?
194. Elektr maydon kuchlanganlik vektorini shu muhit dielektrik singdiruvchanligiga ko’paytmasi nima deb ataladi?
195.  $\frac{\vec{E}_0}{\vec{E}}$  – ushbu ifoda nimani aniqlaydi?
196. Elektr maydon ta’sirida dielektrikning qutblanishi tufayli qanday zaryadlar vujudga keladi?
197. Nima uchun bog’langan zaryadlarning elektr maydoni tashqi maydonni susaytiradi?
198. Elektr induksiya vektorining birligi to’g’ri ko’rsatilgan javobni toping.
199. Alfa nurlanish nima?
200. Fermionlar qanday kvant spin soniga ega?

## Umumiy fizika fanidan o'quv adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyot-ning ARMdagi shifri	Adabiyot-ning ARMdagi inventar raqami	Turi	ARMdagi soni
1	B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov	“Mexanika”	“Yuristmedina markazi” 2005	22.3 13я73 327	У-6588/1	O'quv qo'llanma	10 ta
2	B.Xayriddinov	“Molekulyar fizika”	O'qituvchi 2013	22.36 M79	У-7651/1	O'quv qo'llanma	12 ta
3	B.F.Izbosarov, I.P.Kamolov	“Elektromagnetizm”	Toshkent: 2006	22.313 ya 73	U-6588	O'quv qo'llanma	20 ta
4	Т.С.Ландсбер г	Optika	O'zbekiston millit kutubxonasi 2005	334я.75.3 Л24	У-1791	O'quv qo'llanma	14 ta
5	Т.М.Мо'mino в, А.В.Холиқов, SH.X.Xushmu rodov	“Atom yadrosi va zarralar fizikasi”	Toshkent, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati 2006	22.383 M80	У-6968	O'quv qo'llanma	18 ta

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. М.Рахматуллаев Физика курси, Механика, Тошкент “Ўқитувчи” 1995.
2. М.О'lmasova, J.Kamolov, Т.Lutfullaeva. "Fizika. Mexanika, molekulvar fizika va issiqlik". (I-kitob). Т. "Qqituvchi", 1997.
3. Д.В. Сивухин. Умумий физика курси Механика. Тошкент “Ўқитувчи” 1982.
4. И.К.Кикоин, А.К.Кикоин. Молекуляр физика, Тошкент. “Ўқитувчи”, 1978.
5. Tursunov S.. Kamolov J. “Elektr va magnetizm”, 1996 y.
6. И.В.Савельев “Умумий физика курси”, 2-том, 1985y.
7. Ahmadjonov «Fizika kursi, Optika, atom vayadro fizikasi» Т. 1983y.
8. Dj, Orir. «Fizika» 2 tom. M: “Mir” 1991
9. Axmadjonov «Fizika kursi. Optika. atom va yadro fizikasi» Т. 1983y.

#### Axborot manbalari:

1. www. ziyonet. uz
2. www. edu. uz

#### Astronomiya kursi fanining mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad: talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni, ularda koinot ob'ektlari, hodisalari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni, osmon jismlari va

ular sisitemalarining fizik tabiatlari haqidagi bilim va tushunchalar bilan qo‘rollanishni, astronomiyaning nazariy va amaliy ahamiyatlarini shakllantirish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi: fan talabalarni osmon jismlari va ularning tizimlarida kechadigan barcha jarayon va hodisalarning fizik mohiyatini ilmiy talqin etish, bu hodisalarning kechishida hech qanday g‘ayritabiiy kuchlarning o‘rni yo‘qligiga va ularning evolyutsiyasi mavjud qonunlar asosida ro‘y berayotganiga ishonch hislarida tarbiyalash vazifalarini bajaradi.

### **Astronomiya kursi fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. Birinchi va ikkinchi ekvatorial koordinatalar sistemasiga qaysi koordinatalar kiradi?
2. Yoritgichlarning kulminatsiyalari deb nimaga aytiladi?
3. Musulmon (Oy) taqvimi (kalendari) va Grigorian kalendari (quyosh taqvimi) o‘rtasidagi farq nimalardan iborat?
4. Pretsessiya nima va u tufayli bahorgi tengkunlik nuqtasi qanday yo‘nalishda va qanchaga siljiydi?
5. Ekliptika nima va u bilan ekvator orasidagi burchak qancha?
6. Quyosh va Oy tutilishlarining shartlari.
7. Sutkalik parallaks deb nimaga aytiladi?
8. Yulduz kattaligi yulduzning qanday fizik ko‘rsatgichini xarakterlaydi?
9. Quyosh sirtining temperaturasi necha gradus?
10. Kometa dumining egilishi nima bilan bog‘liq?
11. Yulduzning yillik parallaksi nima va u nima maqsadda o‘lchanadi?
12. Qanday yulduzning absolyut kattaligi uning ko‘rinma kattaligiga teng.
13. Absolyut yulduz kattaliklari necha birlikka farq qiladigan ikkita yulduzning yorqinliklari o‘n marta farq qiladi.
14. Yulduzlar radiusini bevosita o‘lchash usuli nimaga asoslangan
15. Yulduzlarning massasini bevosita o‘lchash usuli nimaga asoslangan va uni qanday yulduzlarga qo‘llash mumkin?
16. Merkuriydan Quyoshgacha bo‘lgan masofa necha astronomik birlikka teng?
17. Marsning Quyosh atrofida aylanish davri necha Yer sutkasiga teng?
18. Quyoshning massasi Yerning massasidan necha marta katta?
19. Quyoshning o‘lchami Yerning o‘lchamidan necha marta katta?
20. Quyoshning umumiy nurlanish quvvati necha vattga teng?
21. Planeta so‘zining asl ma‘nosi nimani anglatadi?
22. Bir yorug‘lik yili necha astronomik birligiga teng?
23. Xorazm Ma‘mun akademiyasining 1000 yilligi qachon nishonlandi?
24. Griogorian kalendari kimning nomiga qo‘yilgan?
25. Quyosh-hijriy kalendari hozirda qaysi nom bilan yuritiladi?
26. Birinchi topilgan Asteroidning nomini ayting
27. Dunyodagi eng katta refraktor teleskop qachon va kim tomonidan yaratilgan?

28. Quyosh sistemasidagi eng baland tog' qaysi planetada joylashgan?
29. Quyoshning 1 sekund davomida chiqarayotgan energiyasi necha Joul?
30. Yupiter massasi Yer massasidan necha marta katta?
31. Merkuriyning Quyosh atrofida aylanish davri necha Yer sutkasiga teng?
32. Mars massasi Yer massasining necha qismini tashkil etadi?
33. Venera massasi Yer massasining necha qismini tashkil etadi?
34. Ellipsning har bir nuqtasidan fokuslar deyiladigan ikki nuqtasigacha bo'lgan masofalar yig'indisiga nima deb aytiladi?
35. Yer sayyorasining ekstentsentrisiteti nechaga teng?
36. Quyoshning apeks nuqtasi deb nimaga aytiladi?
37. Quyoshning apeks nuqtasi deb nimaga aytiladi?
38. Yulduzlar qanday ko'rsatgichlariga ko'ra nechta spektral sinfga ajratilgan.
39. Pulsatsiyalanuvchi yulduzlarning pulsatsiyalanish davri ularning qanday ko'rsatgichiga bog'liq?
40. Yangi yulduz nima va uning yorug'ligini ortishi qanday jarayon bilan bog'liq?
41. Bizning Galaktika qanday tipga kiradi va uning o'lchamlari qanday?
42. Boshqa galaktikalargacha bo'lgan masofani o'lchash usullarini sanab bering.
43. Bir megaparsek uzoqlikda joylashgan galaktika bizdan qanday tezlikda uzoqlashmoqda va nega?
44. Ba'zan samoning "daydi" toshlari ancha katta bo'lib, Yer atmosferasi qatlamidan o'tayotganda yonib ulgurmaydi va bolid ko'rinishida yer sirtiga tushadi
45. 1934 yilda 1 kvadrat gradusli maydonga  $20^m$  gacha ravshanlikdagi 131 galaktika to'g'ri kelishini kim aniqladi?
46. Yulian yilining o'rtacha davomiyligi tropik yildan necha sutkaga ko'proq chiqadi?
47. Grigoryan kalendari bizning davlatimiz xududlarida nechanchi yildan boshlab qo'llanila boshlangan?
48. Soat aylananing  $1/24$  qismiga mos keluvchi markaziy burchak  $1^h=15^0=60^m=60^s$ . 1 minut vaqt o'lchovida necha yoy minutiga teng?
49. Osmon sferasining asosiy katta aylanalari qaysilar?
50. Aberratsiya deb nimaga aytiladi?
51. Galaktikalar to' dasining o'rtacha diametri qancha va to' dadagi galaktikalarning o'rtacha soni nechtaga yetadi?
52. Xozirgi kunda *Xabbl doimiysi* qanchaga teng?
53. Yulduzlargacha bo'lgan masofani aniqlash usullari
54. Yoritkichning osmon ekvatoridan burchak oralig'i.....
55. Osmon ekvatoriga parallel bo'lgan va yoritkichdan o'tadigan osmon sferasining kichik aylanasi.....
56. Olamning shimoliy va janubiy qutblarini tutashtiruvchi katta aylanalari.....
57. Osmon ekvatoriga parallel bo'lgan katta aylanalari qanday aylanalari deyiladi?
58. Grinвич meridianining maxalliy, o'rtacha Quyosh vaqti..... deyiladi.

59. Yerning qaysi qismida janubiy yarimshardagi yulduzlar ko'rinmaydi?
60. Bitta tugundan Quyoshning ikki martaketma ket o'tganvaqti
61. Venera yo'ldoshlari qaysilar?
62. A spektral sinfidagi yulduz rangi qanday?
63. Tashqi ko'rinishi bo'yicha yulduz to'dalari
64. Dunyoda birinchi bo'lib teleskop qaysi yili kim tomonidan aniqlangan?
65. Astronomik kuzatishlarda teleskop qanday vazifani bajaradi?
66. Quyosh doimiysi deb nimaga aytiladi?
67. Quyosh doimiysini o'lchash uchun qanday maxsus asbob yordamida aniqlanadi?
68. Fotosfera spektri qanday ko'rinishda?
69. Fotosfera qalinligi qancha va unda qanday obyektlar kuzatiladi?
70. Quyosh dog'ining tug'ilish bosqichi nima deb ataladi va u qanday qismlardan iborat.
71. Quyosh dog'larining yarim soya qismida gaz massasining uzluksiz tashqariga tomon oqib chiqishi kuzatiladi. Oqimning o'rtacha tezligi sekundiga 2 km ni tashkil qilishini kim aniqlagan?
72. Quyosh atmosferasining o'rta qatlami xromosfera qalinligi qancha va unda qanday ob'yektlar kuzatiladi?
73. Xromosferaning Quyosh toji bilan modda almashinuvi asosan qaysi ob'yektlar vositasida amalga oshadi?
74. Quyosh sistemasidagi qaysi planetaning bir kuni o'zining ikki yiliga teng? (Ya'ni bir kecha – kunduz 176 kun, 1 yili 88 kun)
75. Quyosh sistemasida o'z o'qi atrofida sharqdan g'arbga aylanuvchi yagona sayyora qaysi?
76. Litosferaning quyi chegarasida suyuq yadro borligi qanday aniqlangan?
77. Yer sayyorasi kabi yil fasllari kuzatiladigan sayyora qaysi?
78. Quyosh sistemasidagi eng yirik Sayyora qaysi?
79. Rosh chegarasi qilib qanday masofa olingan?
80. Musiqachi V.Gershel tomonidan 1781 yilda topilgan sayyora qaysi?
81. Yer tipidagi sayyoralar gigant sayyoralaridan qanday ko'rsatgichlari bilan qanday tartibda farq qiladi?
82. Agar Mars qutblarida muz qalpoqlar bo'lsa, demak u yerda suv va hayot bo'lishi mumkinmi?
83. Yer tipidagi sayyoralarni belgilang
84. Ichki sayyoralarni belgilang.
85. Tashqi sayyoralarni belgilang.
86. Kometalarning dumlari Quyosh nurlari bosim kuchining o'rtacha miqdoriga ko'ra necha tipga bo'linadi?
87. Meteor zarralar qanday vujudga keladi?
88. Bolidlar qanday hodisa?

89. Ba'zan samoning "daydi" toshlari ancha katta bo'lib, Yer atmosferasi qatlamidan o'tayotganda yonib ulgurmaydi va bolid ko'rinishida yer sirtiga tushadi ...
90. Meteoritlar o'zlarining kimyoviy tarkibiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
91. Quyosh sistemasida kometaning xarakati
92. Mars bilan Yupiterning orasida ham bitta sayyora bo'lishi kerak degan gipotezani kim bergan edi?
93. Sayyoralarning Quyoshdan o'rtacha uzoqliklari orasidagi bog'lanishni ifodalovchi emperik munosabatni birinchi bo'lib kim aniqladi. ( $r = 0,4 + 0,3 \cdot 2^n$  a.b)
94. Birinchi asteroidni kim va qancha kuzatgan.
95. 1807 – yil 29 – martda to'rtinchi asteroid – Vestani kim topgan.
96. Palermo observatoriyasi direktori Djuppe Piatsti topgan birinchi asteroid (Serera)ni kim va qachon qayta topib kuzatdi.
97. 1802 – yil 28 – martda Sererani kuzatayotib astronom Olbers nimani aniqlaydi.
98. Titsius qonui planetalar orbitasiga tegishli qanday parametрни hissoylaydi?
99. Mayda planetalarning orbitalari mavjud qaysi planetalar oralig'ida yotadi.
100. Qaysi asteroidlar davriy ravishda Yerga yaqinlashib turadi?
101. Birinchi asteroid qaysi va uning o'lchamlari qanday?
102. "O'zbekistoniya" deb nom berilgan (1351 – sonli) asteroidni kim topgan.
103. Kosmosda O'zbekiston nomi bilan parvoz qilayotgan kosmik jism bormi?
104. Yulduzlargacha masofani aniqlash....
105. Yerdan turib kuzatilayotgan sayyoraning burchak diametri 4 martaga ortsa, Yer va sayyoraing orasidagi masofani toping
106. Yulduzdan kelayotgan nurlanish oqimi quvvati yoki yulduzning yorqinligi (L) uning qanday ko'rsatgichlariga bog'liq.
107. Yulduzning temperaturasini o'lchash usullarini sanab bering.
108. Yulduzlar radiusini bevosita o'lchash usuli nimaga asoslangan.
109. Yulduzlarning massasini bevosita o'lchash usuli nimaga asoslangan va uni qanday yulduzlarga qo'llash mumkin?
110. Yulduzlar qanday ko'rsatgichlariga ko'ra nechta spektral sinfga ajratilgan.
111. Yulduzlar nechta yorqinlik sinflariga ajratilganlar va bu ajratishda yulduzning qaysi fizik ko'rsatgichi bosh omil hisoblanadi?
112. Optik qo'shaloq yulduzlar deb nimaga aytiladi?
113. Fizik qo'shaloq yulduzlarning qayd qilish usullariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi.
114. Vizual qo'shaloqlarni optik qo'shaloqlardan qanday farqlanadi?
115. Qo'shaloq yulduzlar komponentlarining biri ikkinchisiga to'la, qisman yoki markaziy to'sib o'tishi nimaga bog'liq.
116. Tutiluvchi qo'shaloq yulduzlarning ko'rinma ravshanligining vaqt bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi chiziqqa nima deyiladi?
117. Tutiluvchi qo'shaloq yulduzlarning ravshanliklarini o'zgaruvchanlik davri deb nimaga aytiladi.

118. Fizik o'zgaruvchi yulduzlarning o'zgarishi nima hisobiga bo'ladi.
119. Fizik o'zgaruvchi yulduzlarning o'zgarish xarakteriga ko'ra qanday turlarga ajratiladi.
120. Pulsatsiyalanuvchi o'zgaruvchi yulduzlarni ularning qanday xarakteriga ko'ra shunday nomlangan.
121. Pulsatsiyalanuvchi o'zgaruvchan yulduzlar davrlarining uzunligi va ravshanliklarining o'zgarish darajasiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi.
122. Sefeidlarning yulduz kattaliklarining vaqt bo'yicha o'zgarish davrlari qanday?
123. Pulsarlar nima?
124. Pulsasiyalanuvchi yulduzlarning pulsasiyalanish davri ularning qanday ko'rsatgichiga bogliq?
125. Sefeidlar ravshanligining o'zgarishi qanchaga yetadi?
126. Yangi yulduzlarning yorqinligini qanday tushuntirish mumkin?
127. Yulduzning tangensial tezligi deb nimaga aytiladi?
128. Yulduzning tuyulma tezligi qanday tahlil etuvchilardan iborat?
129. Osmon sferasidayulduzlar vaziyatini o'zgarib turishining asosiy sabablari nima?
130. Yulduzning xususiy harakati deb nimaga aytiladi?
131. Pretsessiya tufayli qaysi koordinatalar sistemasi o'zgarmaydi.
132. Yulduzning yillik xususiy xarakati  $0,1''$  ga teng. Ungacha bulgan masofa 10ps. Uning tangensial tezligi kancha?
133. Bizning Galaktika qanday tipga kiradi va uning o'lchamlari qanday?
134. O'zbekistonning asosiy Maydonoq observatoriyasi qayerda joylashgan?
135. Mirzo Ulug'bek nomidagi Xalqaro Kenglik stansiyasi Respublikamizning qaysi hududida joylashgan?
136. Dunyodagi eng katta radioteleskop diametri necha metr?
137. O'zbekistonda qurilayotgan radioteleskopning diametri necha metr?
138. O'zbekistonda qurilayotgan radioteleskop qayerda joylashgan?
139. Ulug'bek observatoriyasidagi astronomik asbob nomini ayting.
140. Osmon sferasi nechta yulduz turkumiga bo'lingan?
141. Oyning Yer atrofida yulduzlarga nisbatan aylanish davri necha sutka?
142. Grigorian kalendarining boshlanish tarixi nechanchi yil?
143. Oy-hijriy kalendarida kalendar yili necha sutkaga teng?
144. Sinodik Oyning davomiyligi necha sutkaga teng?
145. Oy hijriy kalendarining boshlanish erasi nechachi yil?
146. Quyosh-hijriy kalendari hozirda qaysi nom bilan yuritiladi?
147. Reflektor teleskop asoschisi kim?

148. Titius-Bode formulasi nimani ifodalaydi?
149. Bir parsek necha yorug'lik yiliga teng?
150. Bir parsek necha astronomik birligiga teng?
151. Merkuriyning tabiiy yo'ldoshlari soni nechta?
152. Olam o'qi Yer o'qiga nisbatan qanday joylashgan?
153. Olam o'qi Gorizont tekisligiga nisbatan qanday joylashgan?
154. Raketa harakati paytida uning tezligi .....
155. Orbitada erkin harakatlanayotgan raketaga qanday asosiy kuchlar ta'sir qiladi?
156. Kosmik apparat ichida vaznsizlik qanday sharoitda ro'y berali?
157. Sun'iy yo'ldoshni Yer atrofidagi erkin aylanma trayektoriya bo'ylab harakatida unga qanday asosiy kuchlar ta'sir etadi?
158. Biror m massali osmon jismining uning yaqinida joylashgan yirik M massali jismga nisbatan ta'sir sferasi deganda nima tushiniladi ( $m \ll M$ )?
159. Planetalarga uchishda KA ning Yer ta'sir sferasi ichidagi harakat trayektoriyasi Yerga nisbatan qanday ko'rinishda bo'ladi?
160. Planetalarga Gomon trayektoriyasi bo'ylab uchishda KA ning Quyosh ta'sir sferasi ichidagi harakat trayektoriyasi Quyoshga nisbatan qanday ko'rinishda bo'ladi?
161. Gigant planetalardan YUjupiter va Saturnni o'rganishda katta rol o'ynagan va birinchilardan bo'lgan avtomatik stansiyalar qanday nomlar bilan atalgan?
162. Yarim elliptik trayektoriya bo'ylab planetalarga uchishda, masalani ikki jism masalasi chegarasida aniqlash uchun bu trayektoriya necha uchastkaga bo'lib o'rganiladi va ular qanday nomlanadi?
163. Yerdan planetalarga uchishda "Yer sirti startlar aylanasi" deganda nima anglashiladi?
164. Yerdan ichki planetaga uchirilgan KA mo'ljallangan planeta orbitasiga yetganda, uning ta'sir sferasiga qaysi tomondan kirganda u bilan uchrashish imkoniga ega bo'ladi?
165. Yer orbitasi radiusi masofasidan Quyoshni tashlab ketishi uchun KA qanday geliotsentrik tezlikka ega bo'lishi kerak?
166. KA Yerning harakat yo'nalishi bo'yicha undan ko'tarilishida, uning boshlang'ich tezligi qancha bo'lganda u Quyoshni butunlay tashlab keta oladi?
167. Quyoshning ta'sir sferasining radiusi qanchaga teng?
168. Quyosh uchun 1-kosmik tezlikning qiymati...
169. Oy asosan qanday kosmik apparatlar yordamida o'rganilgan?
170. Qanday KA yordamida Oy sirtidan uning tuprog'idan namunalar olib kelingan?
171. KAning Oyga yarim elliptik tezlik bilan borishini ta'minlovchi boshlang'ich tezlikka  $1m/s$ li qo'shimcha tezlik berilsa, uning apogeyining balandligi qanchaga ortadi?
172. Oy sirtida 1- kosmik tezlikning kattaligi qanchaga teng?

173. Oyga uchishning fazoviy masalasida, unga har doim gomom orbitasi bo‘ylab tejamli yo‘l bilan borish qanday ta‘minlanadi?
174. Oyga birinchi bo‘lib qanday kosmik apparatda borib, unga birinchi qadamini kim quygan?
175. Oyga hozirga qadar nechta kosmonavt qo‘ngan? Oy sirtiga ikkinchi bulib qadam qo‘ygan kosmonavt kim edi?
176. SY yo‘ldoshlarni uchrashtirishda maksimal kutish vaqti qanday topiladi?
177. Geostatsionar yo‘ldoshlar deb qanday yo‘ldoshlarga aytiladi?
178. Yerning birinchi sun‘iy yo‘ldoshi qachon uchirilgan?
179. Yer atrofiga birinchi bo‘lib chiqqan kosmonavt kim bo‘lgan va u qachon bo‘lgan?
180. Yer atrofida aylanayotgan qanday yulduzlar togri yoldoshlar deyiladi?
181. Sinxron yo‘ldoshlar deb qanday yo‘ldoshlarga aytiladi?
182. Ekvatorial va qutbiy yo‘ldoshlar deb qanday yo‘ldoshlarga aytiladi?
183. Quyosh teleskoplari ... va ... o‘rnatiladi.
184. Optik saralagichlar yordamida o‘rganish sohasi ...
185. Kameralar yordamida tasvir masshtabi ...
186. KKni orbitadan tushirishda uning trayektoriyasi qanday uchastkalarga bo‘linadi?
187. Ekliptika osmon ekvatori bilan qaysi nuqtalarda kesishadi?
188. Yerning qaysi nuqtasida janubiy yulduzlar osmoni ko‘rinmaydi?
189. Osmon ekvatoriga nisbatan yulduzlarning sutkali yo‘li qanday joylashgan?
190. Teleskopda obyektivi va okulyarining vazifasi nima?
191. Barcha yortgichlar sutkada ikki marta kesib o‘tadigan osmon aylanasi nomini ayting?
192. Nima sababdan Quyoshning tush paytidagi balandligi yil davomida o‘zgaradi?
193. Nima uchun yulduzlar xaritasida sayyoralar ko‘rsatilmagan?
194. Qaysi geografik kenglikda yil davomida yulduzlar osmonining har ikkala qismi ko‘rinadi?
195. Yerning qutblarida olam o‘qi bilan vertikal o‘q qanday burchak ostida bo‘ladi?
196. Yerning qutblarida olam ekvatori bilan matematik gorizont qanday burchak ostida bo‘ladi?
197. Toshkentda ( $41^{\circ}20'$ ) Olamning shimoliy qutbi qanday balandlikka ega bo‘ladi?
198. Yerning ekvatorida osmon ekvatori va matematik gorizont qanday joylashadi?
199. Yerning ekvatorida butun olam o‘qi vertikal chiziqqa nisbatan qanday joylashadi?
200. Berilgan yulduzlar xaritasida vertikal chiziqlar osmon sferasining qanday aylanalarining yoylarini ifodalaydi?

## Astronomiya kursi fanidan o‘quv adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyot-ning ARMdagi shifri	Adabiyot-ning ARMdagi inventar paqami	Turi	ARMdagi soni
1	Mamadazimov M.	“Umumiy astronomiya”	T., TDPU 2015 y.	74.00 A-99	U-8418\2	Darslik	22 ta
2	Mamadazimov M.	“Astronomiya”	T. 2000	74.00 A-99	U-6418\4	Darslik	20 ta
3	Sattarov I.	«Astrofizika»(1-qism,	T.: Iqtisod-moliya, 2009 y.	22.314	Y-6513/2	darslik	35 ta
4	Sattarov I.	«Astrofizika»2-qism,	T.: Turon-Iqbol, 2007 y.	22.314H73 X71	911680	qo‘llanma.	30 ta
5							

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mamadazimov M.M. Kosmonavtika asoslari (darslik) –T.: Voris, 2009 y.
2. Mamadazimov M. «Astronomiyadan o‘qish kitobi» –T. O‘qituvchi 1992 y.
3. Sattarov I., Quyosh fizikasi, FAN, Toshkent, 1992.
4. Sattarova B., Astronomiya. Elektron darslik. 2007.
5. Sherdanov Ch., Mamadazimov M., Sattarova B., Ilyaasov S. Umumiy astronomiya (kosmonavtika asoslari) kursidan amaliy mashg‘ulotlar. T., TDPU, 2013.

### Elektron ta’lim resurslari

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

### UMUMIY PEDAGOGIKA fanining mazmuni

Fanni bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanning nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani nomoyon eta olishga o‘rgatish.

Fanning vazifasi:

-talabalarni milliy va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga o'rgatish;

-o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qonuniyat va tamoyillari bilan tanishtirish;

-o'quvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ish yo'nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish mazmunini o'zlashtirish;

-milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

-global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va xududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;

-talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratni tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishga erishish.

### **Umumiy pedagogika fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. Umumiy pedagogika fanining mohiyati, vazifalari va maqsadi.
2. Ta'lim jarayonining tuzilishi.
3. Bolalar jamoasini tashkil etish.
4. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.
5. Ta'lim jarayonining tamoyillari.
6. Tarbiya jarayonining umumiy metodlari.
7. Ta'lim jarayonining metodlari.
8. Ta'lim jarayonining maqsadi.
9. Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari.
10. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
11. Ta'limni tashxis qilish.
12. Estetik tarbiyaning mohiyati, vazifalari va mazmuni.
13. Tarbiya jarayonida maktab oila va maxalla hamkorligi.
14. Iqtisodiy tarbiyaning mohiyati, vazifalari va mazmuni.
15. Tarbiya jarayoni xususiyatlari.
16. O'quvchilar jamoasini shakllantirish.
17. Bolalarni oilada tarbiyalash.
18. O'z – o'zini tarbiyalash.
19. Dars va uni tashkillashga qo'yilgan talablar.
20. Tarbiya jarayonining vositalari.
21. Korrektsion pedagogik
22. O'quv dasturi va rejasi.
23. Sharq mutaffakirlari asarlarida komil inson g'oyasining ifodalanishi.
24. Istisodiy tarbiyaning mazmuni.
25. Darsliklar va ularga qo'yilgan talablar.
26. Aqliy tarbiyaning mazmuni, vazifalari.

27. Ta'lim menejment.
28. Ta'limning og'zaki metodlari.
29. Sinf rahbari va uning faoliyati mazmuni.
30. Tarbiya jarayonining mazmuni.
31. Shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
32. Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi.
33. Pedagogika fanlari tizimi.
34. Ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllari.
35. Pedagogikada shaxs masalasi.
36. Hozirgi zamon darsi va unga qo'yilgan talablar.
37. Pedagogika fanining predmeti.
38. Davlat ta'lim standarti (DTS).
39. Bolalarni yosh davrlariga bo'lish muammosi
40. Pedagogika tarixi qanday fan?
41. Pedagogika tarixi fanining asosiy o'rganish manbalari.
42. Ta'lim – tarbiyaga birinchi bo'lib ilmiy ta'rif bergan olim?
43. Pedagogika tarixi fani predmeti.
44. Pedagogika fani rivojlanishiga xissa qo'shgan sharq allomalari.
45. "Fozil odamlar shahri" va "Ruhiy madaniyat haqida risola" asarlari muallifi kim?
46. Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy axloqiy qarashlari.
47. Yusuf Xos Hojibning ta'limiy axloqiy qarashlari.
48. "Qobusnoma" asarida komil inson tarbiyasi.
49. Ahmad Yugnakiy til odobi haqida.
50. Turkiy tilda yaratilgan 1-didaktik asar.
51. Jadidchilik harakati.
52. Amir Temur tuzuklari.
53. Mirzo Ulug'bek mudarisslik faoliyati.
54. "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilishi.
55. Farobiy ta'lim-tarbiya haqida.
56. Qadimgi Afina va Spartadagi ta'lim tizimi.
57. A. Jomiyning pedagogik qarashlari
58. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi
59. Jahon rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi
60. Pedagogik faoliyat va uning asosiy xususiyatlari.
61. Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari "Ta'lim to'grisida"gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
62. "Ta'lim to'grisida"gi qonunning maqsadini aniqlang?
